



SIYOSIY MATN TARJIMASINING NAZARIY ETIMOLOGIYASI

Elshod Amirkulov Toshtemir o'g'li

Turon universiteti

G'arb tillari kafedrası o'qituvchisi

Elshodamirkulov1997@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15689792>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 18-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

: *tarjima tarixi, siyosiy savodxonlik, entsiklopedik lug'at, nazariy tushuncha, siyosiy vaziyat*

ABSTRACT

Ushbu maqolada siyosiy matn tarjimasining tarixi, genesisi va tarjima haqidagi ilk nazariy fikrlar haqida so'z yuritiladi. Siyosiy matnlar tarjimasi xalqaro munosabatlarda muhim ko'prik vazifasini o'taydi. Chunki bu orqali milliy manfaatlar va xalqaro munosabatlar ifodo etilishi tufayli bunday tarjima turi tarjimondan eng murakkab, ilg'or, nozik va o'ta muhim masalalarni to'liq tushuna olishi kerakligini talab qiladi. Tarixda ham tarjimonlarning bu kabi masalalarni hal etish bo'yicha o'lg'a surgan usullari ushbu maqolada keltirilib o'tiladi. Shuningdek, sharq va g'arb tarjimonchilik maktablari va ulardagi faoliyat ko'rsatgan yetuk tarjimonlar ishlari haqida ham to'liq ma'lumot beriladi.

Ilk davrlardan buyon har bir asrning tarixiy qiyofasini o'sha asrning avvalambor siyosiy, ijtimoiy, madaniy xolati yaratib bergan. Quldorlik, feodal, sotsialistik, kommunistik siyosiy tizimlarining o'rnatilishi yoki barbod etilishi bilan mamlakatlarning taqdiri belgilangan. Ibtidoiy jamiyat davridan boshlangan oila, qabila, urug' jamoachiligida mavjud bo'lmish boshqaruv faoliyati ilk siyosat tushunchasiga asos bo'la oladi.

Ma'lumki, aynan o'sha urug'chilik davridan o'zaro boshqa urug'lar bilan ham aloqa olib borishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi natijasida, tilmochlik faoliyati yuzaga kelib asta-sekin rivojlana borgan. Urug'lararo mahsulot ayriboshlash, nikoh tuzish, hududiy chegara bo'lishish singari kelishuvlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish zarurati bilan tom ma'noda siyosiy tarjimonlikning ham ana shu qadar erta dunyoga kelganligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Xozirgi zamonamizda jamiyat hayotini siyosiy axborotlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Insonlarga kundalik zarur bo'lgan bunday ma'lumot, xabarlar o'zga tillardan adekvat tarzda o'girilib yetkazilishi darkor. Aks holda, tarjimonning aybi – tilni mukammal bilmasligi yohud siyosiy savodsizligi oqibatida boshqa chet mamlakat haqida noto'g'ri fikr tug'ilishi mumkin. Shu tufayli tarjimondan siyosiy matnlarni tarjima qilishda lisoniy bilimlar bilan birga g'ayrilisoniy entsiklopedik bilimlar ham talab etiladi. [1:52-53]

Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi. Dastlabki tarjimalar insoniyatning bir-biriga tomon ochgan karvon yo'llarida tug'ilgan. Ilk tarjima namunalari odamzodning yodida qolmagan. Lekin ular odam, non, ota, ona, uka, singil, oy, osmon, yer, yo'l kabi so'zlardan va ularning

boshqa tillarga tarjimalaridan iborat bo'lganligini tasavvur qilish qiyin emas. Miloddan avvalgi III-I asrlardagi ellinizm madaniyati deb ilmda atalib kelayotgan madaniyat gullab yashnagan davrlarda Aleksandr Makedonskiy Sharqqa - Turon, Xitoy, Shimoliy Hindistonga yurishlaridan so'ng Aleksandriya, Pergam, Antioxiya degan yangi madaniy shaharlarda dunyoning yangi madaniyat markazlari bino bo'ldi.

Bu yerlarda yunoncha museyon deb ataladigan qiroatxonalar va kutubxonalar vujudga keldi. Mana shu Aleksandriyada Ptolemey Fitadelf II zamonida miloddan avvalgi 285-246 yillarda butun insoniyat sivilizatsiyasining taqdiriga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan, tarixda buyuk bir o'zgarish yasagan tengsiz bir voqea bo'lib o'tdi. "Tavrot"ning eng qadimgi besh muqaddas kitobi yunon tiliga tarjima qilindi. Bu tarjima insoniyat tarixiga "Septuaginta" nomi bilan kirdi.

Tarjima jarayonining o'zi ham g'oyatda ustalik hamda bilimdonlik, donishmandlik bilan tashkil etildi. Butun ilm olamidan maxsus tanlab olingan yetmishta til bilimdoni to'plab kelindi. Yetmish olim bir-biridan mutlaqo xabari bo'lmagan holda qadimiy oromiy-ivrit tilidan yunon tiliga "Tavrot"ning dastlabki besh muqaddas kitobini o'girdi. "Septuaginta"ning ma'nosi ana shundan, ya'ni yetmish shorih (sharhlovchi) talqini deganidir. Shu tariqa "Tavrot"ning saqlanib qolgan yagona ivrit-oromiy nusxasidan yetmishta yunon tilidagi tarjima nusxalari yaratildi. [1:56-57]

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so'z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma'no ifodalarini avval tarozida o'lchab, keyin tarjima qilish ma'qul, degan fikrni bildirganlar. Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiya da dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o'z nazariy tushunchalarini bildirib o'tganlar.

O'zbek qadimgi siyosiy adabiyotilarida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ijodida tarjima katta o'rin egallaydi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi olimlar o'z asarlarini arab tilida yozdilar. 359 yilda vafot qilgan olim Abu Bakr Muhammad bin Ja'fariy Narshaxiy Buxoro tarixiga oyid «Tahqiqul-viloyat» (O'lkani o'rganish) nomli asarini yozdi. Bu asar fors tiliga, keyingi davrlarda rus tiliga ham tarjima qilindi. Eng qadimiy asarlardan biri 922 yilda vafot qilgan Abu Ja'far Muhammad bin Jarir Tabariyning «Tarixi Tabariy» nomli bir necha tomli asari bo'lib, 963 yilda Buxoroda somoniy amirlarining saroyida vazir bo'lgan Mir Abu Ali bin Muhammad Bal'amiy tojikchaga qisqartib tarjima etgan. Keyinchalik bu asarning o'zi ham boshqa tillarga tarjima qilingan.

XVIII asrning boshlarida Muhammad Yusuf Munshi bin xo'ja Baqo yozgan ("Tarixi Muqimxoniy") nomli asarni Ogahiy tarjima qilgan. Shoir o'zining devoniga yozgan muqaddimasida bu kitobni ("Tazkirai Muqimxoniy") nomi bilan tarjima qilganini aytib o'tadi. Atoulllo bin Fazullo Husayniy ("Ravzatul-ahbob"), varaqlar. Usmonli turk tilidan tarjima qilingan katta asarlardan biri Ibrohim Haqqiyning ("Tarixi umumiy") nomli asaridir. Bu asar Istanbulda 1889-yilda bosilgan, uni 1908- yilda domla Ro'zmuhammad Xorazmiy Firuzning topshirig'i bilan tarjima qilgan.

1953-yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi - FIT (Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslar faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim ro'l o'ynadi. 1955-yildan uyushma organi "Babel" ("Bobil") jurnali nashr

etila boshlandi. Bu yillarda turli mamlakat olimlarining tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari birin-ketin bosilib chiqdi. Ular orasida fransuz olimi Jorj Munenning "Go'zal, ammo bevafo", ingliz olimi Teodor Savorining "Tarjima san'ati" kitoblari o'sha davrda muhim ahamiyat kasb etdi. [3:16-17]

Davrlar o'tgani sari tarjimaga bo'lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi.

Siyosiy tarjima – bu siyosiy matnni aslyat tilidan tarjima tiliga og'irish bo'lib, bu jarayonda siyosatchi tarjimondan siyosiy matnga xolis yondoshish, o'z fikri, pozitsiyasining ta'sirini o'tkazmaslik, keng ensiklopedik va zamonaviy informatsion bilimlarga ega bo'lishi talab qilinadi. Siyosiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo'lishi lozim. [2:13-14]

XX asrda o'zbek tilidagi siyosiy ma'ruzalar avvalambor rus tiliga so'ngra esa boshqa xorijiy tillarga tarjima qilish vaziyati ko'p kuzatilgan. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, Z.Tincherova kabi tarjimonlar katta yutuqlarga erishishgan.

Bundan tashqari, 60-yillarda N. Vladimirova, J. Sharipov, G'. Salomov, Yu. Po'latov, J. Bo'ronov, A. S. Aznaurova, A. Abduazizov, Q. Musayev, G. G'afurova, S. Salomova, N. Komilov singari tarjimashunos olimlar tomonidan yaratilgan ijtimoiy-siyosiy sohalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda ham siyosiy tarjima borasida keng ko'lamda izlanishlar olib borilganidan dalolatdir.

Tarjima faoliyatining ko'pgina turlariga xos bo'lgani singari ijtimoiy-siyosiy tarjimaga ham umuman nomutanosib bo'lgan talablar qo'yiladi: u yuqori darajada tezkor va maksimal darajada aniq va siyosiy jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim. Siyosiy tarjima - bu faqatgina iboralarni so'zma-so'z shakllantirish emas, balki bu yana boshqa davlatning madaniy an'analarini anglash hamdir. [4:2-3]

Tarjima qilinayotgan matning mohiyatini ifodalab bera olish uchun siyosiy tarjimani amalga oshirish chog'ida boshqa mamlakat hayotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham, undagi siyosiy vaziyatlar, aholining kayfiyati va ruhiyati haqida va uning hayotidagi boshqa jabha masalalari to'g'risida ham keng ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, siyosiy matn tarjimasining tarixi, etimologiyasini o'rganish ushbu soha tarjimonlari uchun juda ulkan bilimlar manbaini ochish hisoblandi. Chunki oldingi davr tarjimonlar ishlarini o'rganish, ular qo'llagan usul va metodlarni hozirgi zamon tarjima metodlari bilan solishtirish orqali joriy tarjimonlar juda katta yutuqlarni qo'lga kiritishlari mumkin. Shuningdek, sharq va g'arb tarjimachilik maktablarining yetuk namoyondalarining tarjima asalarni o'rganish ikkila madaniyat o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini o'rganishga katta yo'l ochib beradi. Siyosiy matnlar tarjimasi bilan ish olib borgan XX asr o'zbek tarjimonlari ham tarjimaning ushbu yo'nalishni yurtimizda yanada kengroq o'rganilishiga va bu soha turning yangi avlodga o'qitilishiga o'zlaring ilmiy ishlari billan katta hissa qo'shishgan. Umuman olganda tarjimaning bu turi bizda hali yanada keng o'rganilishi va tadqiq etilishi kelajak avlod oldida turgan katta vazifalardan biri hisoblanadi.

References:

- [1] Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma I.G'ofurov, O,Mo'minov, N.Qambarov. - Toshkent :Tafakkur-Bo'stoni, 2012. b.52-53.
- [2] Z.F.Zaynutdinov. 2013. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasi va uning o'ziga xosliklari, b.13-14.
- [3] G'afurov I. Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.b.16-17
- [4] M.A.Nugumanova. 2013.The importance of translation in political life. Karaganda State Technical University, p.2-3.

